

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

"Tasdiqlayman"

O'zbekiston davlat  
xoreografiya  
akademiyasi rektori

SH.M. Toxtasimov

"17" 06 2025-y

"Kelishildi"

O'zbekiston  
Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovasiyalar vazirligi

M. J.

"17" 06 2025-y

"Kelishildi"

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi



"17" 06 2025-y

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

60211600 – Xoreografiya (xoreografiya jamoalari rahbari)

(kunduzgi) ta'lif yo'nalishi uchun

Toshkent – 2025

Mazkur dastur va baholash mezonlari O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2025-yil 12-iyundagi 11-sonli yig‘ilish bayoni).

**Tuzuvchilar:**

“Xoreografiya jamoalari rahbari”kafedrasи  
mudiri, dotsent - Usmanova G.N.

“Xoreografiya jamoalari rahbari”kafedrasи  
dotsenti - Maxmudova M.M

**Taqrizchilar:**

“Xoreografiya jamoalari rahbari”  
kafedrasи professori, O‘zbekistonda xizmat  
ko‘rsatgan artist - Muxamedova O‘.N.

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasи  
dotsenti, San’atshunoslik fanlari nomzodi  
Tashkenbayev P.I.

## ABITURIYENT BILIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

**Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyentlar quyidagicha baholanadilar  
“Xoreografiya” (Xoreografiya jamoalari rahbari)**

### 1. Ijrochilik mahorati

**(Ijrochilik mahorati “Klassik raqs”, “Xalq sahma raqsi” va “O‘zbek raqsi” predmetlarini o‘z ichiga oladi)**

Ijrochilik mahorati “Klassik raqs”, “Xalq sahma raqsi” va “O‘zbek raqsi” fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga olgan holda savol-javob orqali 63 (oltmis uch) ballik tizimda baholanadi.

#### **“Klassik raqs”, “Xalq sahma raqsi” predmetlari bo‘yicha**

“Klassik raqs”, “Xalq sahma raqsi” predmetlari xoreografiya san’ati ta’lim yo‘nalishida asosiy mutaxassislik (raqs) fanlari hisoblanadi. Shu sababli ijodiy imtihon jarayonida klassik raqs va xalq sahma raqsi talablari bo‘yicha – qomatni tik tutish, uning egiluvchanligini ta’minalash, yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etilgan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlari, sakrash, aylanish, oyoqni professional talab bo‘yicha belgilangan meyorlar darajasida baland ko‘tarish kabi ko‘plab xoreografik elementlar o‘z aksini topishi lozim. Ushbu predmet bo‘yicha abituriyent uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

1. Musiqani eshitish va tinglash qobiliyati.
2. Ritmni his qilish.
3. Klassik raqs va xalq sahma raqsi makteblarining asosiy harakatlarini bilishi va ularni bajara olishi kerak.

#### **Maksimal ball – 31 (o‘ttiz bir) ball**

25-31 ball	<p>1. Klassik raqs va xalq sahma raqsi talablariiga javob beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>a) qomatni tik tutish;</li><li>b) qomatning egiluvchanligini ta’minalash;</li><li>v) dastgoh oldida qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini to‘g‘ri bajarish;</li><li>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan</li></ul>
---------------	--

	<p>harakatlarni bajarish;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar va aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p> <p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Klassik raqs va xalq sahna raqsi terminologiyalarini tushunish va mustaqil mushohada eta olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
	<p><b>2. Klassik raqs va xalq sahna raqsi talablarini tushunadi:</b></p> <p>a) qomatni tik tutish;</p> <p>b) qomatni egiluvchanligini ta’minlash;</p> <p>v) dastgoh oldida bajariladigan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini qisman bajara oladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni qisman biladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar, aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p> <p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p>
18-24 ball	<p>2. Klassik raqs va xalq sahna raqsi terminologiyasini tushunishi va mustaqil mushohada qila olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>

10-17 ball	<p><b>3. Klassik raqs va xalq sahma raqsi to‘g‘risida tasavvurga ega:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>2. Klassik raqs va xalq sahma raqsi mashqlarni to‘liq o‘zlashtirmagan.</li> <li>3. Klassik raqs va xalq sahma raqsi terminologiyasi haqida tasavvurga ega.</li> <li>4. Klassik raqs va xalq sahma raqsi to‘g‘risida nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog‘lay olmaydi.</li> <li>5. Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi.</li> <li>6. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi.</li> <li>7. Musiqiy o‘lchovlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega emas.</li> </ol>
1-9 ball	<p><b>4. Klassik raqs va xalq sahma raqsi fanlari haqida umuman tushunchalarga ega emas:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Klassik raqs va xalq sahma raqsi terminologiyasini tushunmaydi .</li> <li>2. Amaliy mashqlarni bajara olmaydi.</li> <li>3. Klassik raqs va xalq sahma raqsi harakatlarini umuman bajara olmaydi.</li> <li>4. Musiqiy o‘lchovlarni tushunmaydi.</li> </ol>

### **O‘zbek raqsi predmeti bo‘yicha**

Abituriyent uchun asosiy talablar:

1. Musiqani his etish.
2. Ijrochilik mahoratiga ega bo‘lish.
3. O‘zbek milliy raqs muktabalarining harakatlari ijrosini bilish va ular haqida tushunchaga ega bo‘lish kerak.

### **Maksimal ball – 32 (o‘ttiz ikki) ball**

25-32 ball	<p><b>1.O‘zbek milliy raqs talablariga javob beradi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.O‘zbek milliy raqs muktabalarini bir-biridan farqini yaxshi biladi va harakatlarini to‘g‘ri bajaradi.</li> </ol>
---------------	--

	<p>2. O'rganilayotgan harakatlarning nomlanishini biladi va mustaqil bajara oladi.</p> <p>3. Musiqiy o'lchovlarga to'g'ri yondoshadi.</p> <p>4. Amaliy mashqlarni to'g'ri bajara oladi.</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to'g'ri izohlay oladi.</p>
18-24 ball	<p><b>2.O'zbek milliy raqslarini tushunadi:</b></p> <p>1.O'zbek milliy raqs maktablari haqida tushunchaga ega va harakatlarini bajaradi.</p> <p>2. Harakatlar nomlanishini tushunadi va bajara oladi.</p> <p>3. Musiqiy o'lchovlar haqida bilim va tushunchaga ega.</p> <p>4. Amaliy mashqlarni tushunadi va bajara oladi.</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay oladi.</p>
10-17 ball	<p><b>3.O'zbek milliy raqslari to'g'risida tasavvurga ega:</b></p> <p>1.O'zbek milliy raqs maktablari haqida tasavvurga ega.</p> <p>2. O'rganilayotgan harakatlar terminologiyasi haqida mustaqil mushohada qila olmaydi.</p> <p>3. Musiqiy o'lchovlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega emas.</p> <p>4. Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi.</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi.</p>
1-9 ball	<p><b>4.O'zbek milliy raqslari to'g'risida tushunchalarga ega emas:</b></p> <p>1.O'zbek milliy raqs maktablari haqida tasavvurga ega emas.</p> <p>2. O'rganilayotgan harakatlar terminologiyasi mazmun va mohiyatini umuman tushunmaydi.</p> <p>3. Amaliy mashqlarni to'g'ri bajara olmaydi.</p>

Ijrochilik mahorati “Klassik raqs”, “Xalq sahna raqsi” va “O'zbek raqsi” fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga olgan holda maxsus biletlar asosida savol-javob orkali 63 (oltmish uch) ballik tizimda baholanadi.

## 2. Xoreograf mahorati

Ijodiy kirish imtihoni amaliy va nazariy qismlardan tashkil topgan bo'lib, abituriyentlar xoreografiya san'ati, uning tarixi va elementlariga oid birlamchi (dastlabki) tushunchalarini bilishlari talab etiladi.

1. Raqs kompozitsiyasini namoyishi (3-5 daqiqa).
2. Improvizatsiya mahorati. (5 daqiqa).
3. Savol-javob (bilettagi savollarga javob berish).

Biletlar savollari umumlashtirilgan ma'lumotlar to'plami oldindan akademianing uzdxo.uz rasmiy sayti orkali yoritiladi va abituriyentlar diqqatiga yetkaziladi. Suhbatlashish jarayonida abituriyentning umumiyligi ma'naviy, estetik fikrlash, o'zbek va jahon san'at turlariga oid bo'lgan manbalarni va xoreografiya san'atiga o'zining hissasini qo'shgan ijodkorlar ijodiy faoliyatini qay darajada bilishi aniqlanadi.

Shu bilan birgalikda abituriyent bilet asosida tanlagan musiqaga raqs ijro (improvizatsiya qilib) etib berishi lozim.

### Abituriyent uchun asosiy talablar:

#### Maksimal ball- 93 (to'qson uch) ball

80-93 ball	Xoreografik asar uchun mavzu va syujet tanlagan.
	Sahnalashtirgan xoreografik raqsining mazmun va mohiyatini aniqlabadi hamda o'zi mustaqil ijro eta oladi. Harakatlarni to'g'ri va aniqlabajar oladi va tushuntirib beradi. Xalq, milliy, klassik raqlar va baletlar haqida tushunchaga ega.
	Musiqiy asarning g'oyasini ochib bera olgan va tanlangan musiqiy asar muallifining ijodiy faoliyati haqida bilimga ega. Musiqa janrlarini tushunadi va farqlaydi.
	Ijrochilar bilan ishlash metodlarini biladi. Mashg'ulotlar jarayonida jamoa qatnashchilari bilan ijodiy muloqot qila oladi.
	Ijrochilik va improvizatsiya mahoratiga ega.

	Sahnalashtirgan raqsining mazmun-mohiyatini tushunadi va ijro etib bera oladi. Xalq, milliy, klassik raqlar va baletlar haqida tushunchaga ega.
50-79 ball	Tanlagan musiqasi haqida umumiyl tushunchaga ega.
	Ijrochilar bilan ishlashni biladi.
	Sahnalashtirgan raqs haqida umumiyl tushunchaga ega.
20 - 49 ball	Sahnalashtirgan raqsini qisman ijro eta oladi. Haraqatlarni to‘liq bajara olmaydi. Xalq, milliy, klassik raqlar va baletlar haqida tushunchaga ega emas.
	Musiqa haqida umumiyl tushunchaga ega.
	Improvizatsiya qilish qobiliyatiga qisman ega.
1 - 19 ball	Xoreografik asar mavzui va syujeti haqida tushunchaga ega emas. Ritm va musiqani his qilmaydi. Sahnalashtirgan raqsini mazmuni yo‘q va raqsini o‘zi ijro eta olmaydi. Ijrochilik improvizatsiya qibiliyatiga umuman ega emas.

### 3. Ijodiy imtihonda abituriyentlar bilimini baholash

1. Ijrochilik mahorati (“Klassik raqs”, “Xalq sahna raqsi” va “O‘zbek raqsi” predmetlari) bo‘yicha maksimal - 63 (oltmis uch) ball.

2. Xoreograf mahorati bo‘yicha maksimal - 93 (to‘qson uch) ball.

*Jami maksimal - 156 (bir yuz ellik olti) ball.*

### 4. Kasbiy(ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60211600 “Xoreografiya” (Xoreografiya jamoalari rahbari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunda ijodiy imtihon topshiradilar. Ijodiy imtihon “Klassik raqs”, “Xalq sahna raqsi” va “O‘zbek raqsi” predmetlari hamda “Xoreograf mahorati”dan amaliy va nazariy

shaklda o'tkaziladi. Abituriyentlar ijodiy imtihonda o'zining ijo mahorati va qobiliyatini ko'rsatib berishilari lozim.

Abituriyentlarning amaliy shaklda bajargan ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan binoga kirishda abituriyent kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo'lsa, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini guruhdan tashqariga chiqarsa, mazkur holatlarda abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi. Imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnama tuziladi va kasbiy (ijodiy) imtihondan chetlashtiriladi.

## **5. Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha akademiya apellyatsiya komissiyasiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab, 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Abituriyent tomonidan yozilgan murojaat, uning o'ziga tegishli to'plangan ballar bo'yicha norozilik bo'lган holatda ariza qabul qilinadi. Boshqa abituriyentlarga tegishli bo'lган masalalar yuzasidan yozilgan shikoyat - arizalari qabul qilinmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. (Qadimiy zamonlardan 2000 yilga qadar o'zbek an'anaviy raqs san'ati). – T. Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "O'zbek raqs" milliy raqs birlashmasi. 2001.
2. Abduhakimova D.M. Raqs kompozitsiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2019.
3. Abraykulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.
4. Yeshimbyetova A.I. Xalq sahna raqsini o'qitish uslubiyoti (O'quv qo'llanma). –T.: Navro'z, 2020.
5. Jalilova SH.SH. O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Navro'z, 2020.
6. Iskandarova R.R. Klassik raqs (O'quv qo'llanma). –T.: Navro'z, 2021.
7. Nasibulina L. "История узбекского хореографического искусства"– T.: Navruz, 2019.